



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil "28" iyun

BUYRUQ № 149

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash hamda statistika ma'lumotlarini tarqatish va taqdim etish ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Rasmiy statistikani tarqatish idoraviy siyosati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi (X. Jurayev), Xalqaro hamkorlik va axborot almashuv boshqarmasi (O. Mamadaliyev), Axborot xizmati (U. Abdurasulov), Statistika agentligining markaziy apparati boshqarmalari (bo'limlari) va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari rasmiy statistikani tarqatish va foydalanuvchilarga taqdim etish jarayonida mazkur Siyosatga amal qilinishini ta'minlasinlar.

3. Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 30- oktabrdagi 98-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (G. Salixova) mazkur Siyosatni Statistika agentligining markaziy apparati boshqarmalari (bo'limlari) va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov